

ta'minlaydi. Shu bilan birga, tizimning ta'lim jarayonidagi ahamiyati yanada ortib, ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviylashtirish va global ta'lim standartlariga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu tizimning ishlab chiqilishi va samarali qo'llanilishi, ta'lim sohasida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning keng imkoniyatlarini ochib berdi va bu soha bo'yicha kelajakdagi tadqiqotlarga yangi yo'nalishlar belgilab berdi. Pedagogik tadqiqotlar va amaliyotda sun'iy intellektning integratsiyasi, ta'lim sifatini yuksaltirishning yangi usullarini taklif etadi va bu jarayon hozirgi va kelajak avlodlar uchun ta'limni yanada qulay va samarali qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.02.2021 yildagi PQ-4996-sonli qarori.

2. Котлярова И.О. Технологии искусственного интеллекта в образовании // Вестник ЮУрГУ. Серия «Образование. Педагогические науки». 2022. Т. 14, № 3. С. 69–82. DOI: 10.14529/ped220307.

3. Muxiddinov M.N. Sun'iy intellekt va uning imkoniyatlari. Science and innovation international scientific journal. 2022-02. SSN: 2181-3337.

TEKNOLOGIK TA'LIM YO'NALISH O'QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIK ISHLARINI TASHKIL ETISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Lafasov Bekzod Javliyevich

“Professional ta'lim metodikasi” kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish ko'zda tutilgan, zamonaviy dars o'tish bosqichlari, innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanish usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. klaster yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, elektron platforma, ilmiy tadqiqot, ilmiy rivojlanish, innovatsion texnologiya.

Talabalarning kasbiy tayyorgarligini tashkil etishda zamonaviy innovatsion uslublarini joriy etish O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish 2030-yilga kelib iqtisodiyotning sanoat va texnologik tarmoqlari bo'yicha jahonda yetakchi davlatlardan biriga aylanishiga zamin yaratishda muhim shartlardan biridir. Jamiyat rivoji, ishlab chiqarish taraqqiyoti ma'lum ma'noda yosh avlodga beriladigan ta'limning mazmuni va darajasi, bu sohada faoliyat yuritayotgan o'quv muassasalarida amalga oshirilayotgan ta'limning yo'nalishi, mohiyati hamda natijalariga bog'liqdir. Darhaqiqat, ta'lim tizimining mazmun va mohiyat jihatdan rivojlanishi talabalarga ahloqiy madaniy ta'lim berish, ta'lim jarayoniga ilm-fan, texnika hamda texnologiyaning ilg'or yutuqlarini joriy etish, kam jismoniy kuch va vaqt sarflagan holda yuqori natijalarga erishish, shaxsda ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish hamda ularni boyitish asosidagina jamiyatda ma'naviy sog'lom turmush tarzini qaror toptirish mumkin. Qaysi jamiyatda ma'naviy muhit va sog'lom turmush tarzining vujudga kelishiga erishilar ekan, ana shu jamiyat sohalarida rivojlanish ro'y beradi.

Ta'limning globallasuvi sharoitida, uzluksiz ta'lim va tarbiyani takomillashtirish yo'lida tashkil etilayotgan islohotlar jarayonida mazkur o'quv yurtlarida ham o'qitish jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish borasida amaliy harakatlar olib borilmoqda.

- OTM larida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorlashda klaster yondashuv asosida takomillashtirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish;
- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarligi hamda uni takomillashtirish;
- klaster yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishning uslubiy asoslarini yaratish;
- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda klaster yondashuvdan foydalanish metodikasini ishlab chiqish.
- Buning uchun esa:

- fan-texnika va texnologiyalarning eng so‘nggi yutuqlari va ularning amaliy ahamiyati haqidagi ma’lumotlar bazasi hamda uni muntazam ravishda boyitib borish imkoniyatiga ega bo‘lish;

- texnologiya fani o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatiga mos keluvchi innovatsion kompetensiyalar bazasiga ega bo‘lish;

- turli xil kasb-hunarga tegishli texnik vositalar (detallar, qurilmalar, mexanizmlar, birikmalar, mashinalar va boshqalar) bilan munosabatda bo‘lish haqidagi ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lish va ulardan kasbiy faoliyatni olib borishda (bilim, ko‘nikma va malakadan amaliy faoliyatda foydalanishda) ta’limiy axborot sifatida foydalana olish;

- innovatsion ishlab chiqarishning ilmiy asoslari bilan tanishish;

- texnik obyektlar va texnologik jarayonlar asosida amaliy ko‘nikmalarga (o‘lchov, hisoblash, qayta ishlovchi montaj qilish) ega bo‘lish;

- ko‘pgina kasblar egasi uchun zarur bo‘lgan turli xil detallar va ularning qismlari, uzal, birikmalar, texnik qurilmalar, mexanizm va mashinalarga oid bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish kerak.

Bunday bilim va bolalarda egallash, bo‘lajak mutaxassislarda texnologiya funksiyalari takomillashuviga olib keladi hamda olgan bilim va ko‘nikmalarini boshqa faoliyat turlariga qo‘llashga imkoniyatlar yaratadi.


OTM bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlashda quyidagi muhim masalalarni hal etish dolzarb vazifa ekanligi aniqlandi:

- 1) Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarini kasbiy tayyorlash jarayonida inovatsion texnologiyalardan foydalanish, talabalarda bo‘lajak kasbiy faoliyatida amaliy ko‘nikmalarini qo‘llay olishning shakllanganlik va qobiliyatlarining rivojlanganlik darajalarini aniqlash;

- 2) klaster yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarining zamonaviy talablarga javob beradigan yetuk mutaxassis bo‘lib yetishlaridagi o‘rni va roli hamda ahamiyatini ilmiy asoslash;

- 3) Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining klaster yondashuv asosida ijodiy, texnik-texnologik va pedagogik qobiliyatlari bo‘yicha yetarli darajada

ko‘nikma va malakalarni shakllanganlik darajasini aniqlovchi tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o‘tkazish va amaliyotga tatbiq etishdan iborat bo‘ladi;



Yuqoridagilarni umumlashtirib, klaster yondashuvini amalga oshirishda biz bir nechta asosiy komponentlarni keltiramiz:

- umumiy maqsad;
- sub’ektlarning birgalikdagi faoliyatining huquqiy asoslari;
- sub’ektlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir mexanizmlarini ishlab chiqish;
- klaster yondashuvi amaliyotida joriy etishni boshqarish mexanizmlari;
- umumiy maqsadlarga mos keladigan klaster yondashuvini amalga oshirish texnologiyalari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasida umum o‘rta ta’lim strategiyasi muammolari va ta’lim mazmunining yangi moddalari ularni tadbiq etish yo‘llari. (Fan nashriyoti Toshkent-2005-yil)

3. I.A.Vorobey, “Педагогические основы трудового воспитания школьников”. “O‘qituvchi” Toshkent-1978. I.K.Sheplikina, V.I.Romanina.

4. Tolipov O‘.Q., M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari - T., 2006

СОЗДАНИЕ ПРИЛОЖЕНИЯ И ПРИНЦИПЫ ЕГО РАБОТЫ В ОПЕРАЦИОННОЙ СИСТЕМЕ IOS ДЛЯ МОБИЛЬНЫХ УСТРОЙСТВ

Абдрахманова Г.М., Абишова Г.Б., Балгимбекова У.Б.

Центрально-Азиатский Инновационный университет, Казахстан,

г.Шымкент

E-mail: gulzhanat1988_1303@mail.ru

Профессия программиста – самая престижная и востребованная. Самая быстрорастущая и высокооплачиваемая сфера разработки программного обеспечения — разработка мобильных приложений.

Сегодня Apple лидирует в сегменте мобильных технологий со своим смартфоном iPhone. Для удобства решения профессиональных задач необходимы простое общение, различные устройства информационных технологий и программные приложения.

В статье рассмотрены способы разработки простого мобильного приложения для операционной системы iOS. Для этой цели используется популярная и лучшая операционная система – система Mac и проводятся сравнительные исследования. Если у вас нет операционной системы Mac, вы можете установить и использовать виртуальную машину MacOS в Windows.